



**MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**



**JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI**

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



YOSHLAR MA'NAVIYATINI O'STIRISHDA ADABIYOTNING O'RNI

Musurmonova M.B

Jizzax PM

Adilova Sohiba Axmat qizi

Jizzax shahar 17-DMTT uslubchisi

Annotatsiya: Maqolada axborot texnologiyalarining ahamiyati, adabiyotning maqsadi, alla ham adabiyotning o'ziga xos ko'rinishi ekanligi, badiiy adabiyotning bola ruhiyatiga, uning ongiga ijobiy tasir etishi, yoshlarning mustahkamlanib borayotgan ichki kuchlari ehtiyojiga moslash va boshqa masalalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, alla, ichki kuchlar, orom beruvchi, odob-axloq, heyyalar, ertaklar, maqol va masallar, matallar.

Abstract The article discusses the importance of information technologies, the purpose of literature, the fact that literature is a unique form of literature, the positive impact of fiction on the psyche of a child, its adaptation to the needs of the growing inner strength of young people, and other issues.

Key words: information technologies, Allah, internal forces, comforter, manners, stories, fairy tales, proverbs and proverbs, matals.

Абстрактный: В статье рассматривается значение информационных технологий, назначение литературы, тот факт, что литература является уникальным видом литературы, положительное влияние художественной литературы на психику ребенка, ее адаптация к потребностям растущей внутренней силы молодых людей. и другие вопросы.

Ключевые слова: информационные технологии, Аллах, внутренние силы, утешитель, нравы, рассказы, сказки, пословицы и пословицы, маталы.

KIRISH.

XXI –asr aql va zakovat, fan va texnika asri sifatida inson faoliyatining barcha jabhalarini jadallik bilan qamrab olmoqda.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalari, xususan, kompyuter insoniyat hayotining barcha jabhalariga kirib borib, o'zining qulay va afzal jihatlarini namoyon qildi. Jumladan, ta'lim sohasida ham bilim berish va baholash vositasi sifatida axborot texnologiyalarining ahamiyati oshdi. Bugunning bolasi ko'zi bilan ko'rib, eshitib, anglab, idrok etayotgan ko'plab hayotiy voqea va hodisalar, ilmiy natijalar asosiga qurilgan amaliy jarayonlar kechagisidan tubdan farq qiladi. Endilikda yoshlarni zamonaviy kompyuterlardan, teleekrandan, turli ko'ngil ochar o'yinlardan qaytarishga urinish samarasizdir. Bu borada ularni ta'qiqlash va mahrum etish natija bermaydi. Biroq, ularning bu boradagi intilishlarini to'g'ri yo'naltirish, kerak bo'lsa boshqarish mumkin va lozim.

Kishilik jamiyati paydo bo'la borishi barobarida adabiyot ham turli ko'rinishlarda shakllana borganligi ko'pchilika ayon. Chunki adabiyot insonning tasavvuri, orzu-intilishlarini odam va olam to'g'risidagi tushunchalarni ifodalaydigan sehrli qudratdir. Adabiyot insonga yaxshi do'st bo'ladi, uning didini o'stiradi. Unda berilgan manzaralarning inson tarbiyasini yuksaltirishda, odob-axloqning go'zal

namunalarini shakllantirishdagi o'zni beqiyosdir. Chunki adabiyotning maqsadi ham aslida insonni ma'naviy kamolotga yetkazishdir. Aynan so'z qudrati vositasida bola o'z g'alalar qalbini tushuna olish, uning his-tuyg'ularini idrok etishga o'rganadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Bola tug'ilgandayok, onalar qo'shig'i- allani eshitadi. Alla ham adabiyotni o'ziga xos chiroyli ko'rinishidir. Alla aytayotgan ona uni chin dildan kuylagani holda, yuragining shu nidosida o'z orzularini, yaxshi niyatlarini aytadi. Alla ohangi bilan farzandiga mehrini, yurak haroratini baxsh etadi. U orom beruvchi kuydir. Uning navolarida rux tarbiyalanadi.

Bola ulg'aya borishidanoq unga badiiy adabiyotni hamroh kilsak, uning manaviy yetukligiga, erkin fikrli bo'lishiga yordam bergan bo'lamiz.

Hali yorug' olamni endigina ko'rib, o'rgana borayotgan bolaga onalar tomonidan allalar, otalar tomonidan heyyalar, ertaklar, maqol va masallar, matallar, tarbiya va o'git beruvchi so'zlar hamrohligida ulg'ayishlariga ko'mak bermoq lozim. Ularga ibratli ertaklar aytib charchamaylik. Xalq tajribalari zamirida yaratilgan maqollarning manolarini tushuntirib beraylik. Ularning sher yod olishlariga ko'mak beraylik. Kitoblar sovg'a qilaylikki, ularda kitobga, adabiyotga mehr uyg'otaylik. Chunki, adabiyot- bu nafosat. Shunday ekan, adabiyot ularning qalblarini go'zallashtirishga, o'ziga xos fikrlarga ega bo'lishlariga, ularda inson odobi va fazilatlarining oliy ko'rinishlari kamol topishiga yordam bersin !

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Badiiy adabiyotning bola ruhiyatiga, uning ongiga ijobiy tasir etishi, insoniylik qadriyatlarining rivojlanishiga rag'bat bera olishi Azim Suyunning quyidagi sherida tan berarlik darajada ifodalangan:

Bahodirning qilichi sindi
So'nggi nuqta. Tugadi ertak
Pastak hovli chetida dilxun
Bir bola yig'laydi _____
Qo'lida kitob.
Bahodirning qilichi sindi
Bahodirning qilichi sindi
Yovniki butun.
Qayga ketdi yaproqdek bola
Bo'ta kabi qayda bo'zlaydi
Uchib yurgan varaqlar, ana
Shamollarga ertak so'zlaydi
Bola qani ?... Bilmayman, ammo
Ishonaman, qaylardadir u
Bahodirga qilich izlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).

Beriladigan bilimlarni yoshlar faqat iste'mol qilishlari zerikarli jarayondir. Yoshlarning faolligi esa ularni tashvishlantirgan savollarga javob topish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bolalarni muammolar qo'yish va ularni hal etishga, yoki hech bo'lmasa